PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdulkarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	
MARKETING VA TOVAR STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISH	993
Ibadullayeva Sevara Allashukurovna, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
PILLACHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA DAVLAT KO'MAGIGA OID METODOLOGIK YONDASHUVLAR	998
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

G'aybullayev Odil Baxtiyarovich

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti PhD dotsenti

Amanova Xurshida Inyatullaevna

Mustaqil tadqiqotchi

E-mail: G'aybullayev@mail.ru

ORCID:0009-0000-8968-539X

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda tijorat banklarining kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari va shu tariqa kreditlash tizimini rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, kredit, bankning kredit portfeli, kredit portfelini boshqarish, risk, daromadlilik, likvidlilik.

Abstract. This article discusses how to improve the efficiency of the credit portfolio management of commercial banks in Uzbekistan, and the development of the lending system.

Key words: commercial bank, credit, bank's credit portfolio, credit portfolio management, risk, profitability, liquidity.

Аннотация. В этой статье описывается, как повысит эффективность управления кредитным портфелем коммерческих банков и на основе этого развиват систему кредитования в Узбекистане.

Ключевые слова: коммерческий банк, кредит, кредитный портфель банка, управление кредитным портфелем, риск, доходность, ликвидность.

KIRISH

Bugungi kunda bank tizimi milliy iqtisodiyotning eng muhim sohalaridan biri sifatida faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan kreditlash jarayonlari iqtisodiy o'sishni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, bank faoliyatida kredit portfelini samarali boshqarish, uning sifatini yaxshilash va risklarni minimallashtirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda bank tizimini liberallashtirish sharoitida kredit operatsiyalari muhim o'rin tutadi. Tijorat banklari kredit operatsiyalari bank daromadlarini shakllantiruvchi faoliyat bo'lganligi sababli kredit portfelining sifat darajasi barqarorligini ta'minlash bugungi kunda banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli, tijorat banklari kredit portfelini samarali tarzda boshqarish xo'jalik sub'ektlarining kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Bu borada Prezidentimizning Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida, "Eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilgani, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisodiyot rivojiga xalaqit bermoqda.

Biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish bo'yicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni o'rganishimiz lozim. Bu masalada etti o'lchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta o'ylab ish olib boradigan davr keldi" deb ta'kidlab o'tganlari bejiz emas*[7].



Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari hajmining oshishi, ulardan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yurituvchi subyektlar mikdoringa ko'payishi, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish, ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash vazifalari banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borishni dolzarb masala ekanligini asoslab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish masalalari bir qator xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan va kredit portfeli tushunchasini uning mohiyatiga berilgan ta'riflarda ifodalangan. Masalan amerikalik iqtisodchilar Kris J. Barlton, Diana Mak Noton kredit portfeli - bu kreditlarni turkumlashni o'z ichiga oladi deb ta'riflashadi [13].

Shuningdek, N. Sokolinskaya "kredit portfeli qisqa va uzoq muddatli kreditlar yig'indisidan iborat" deb ta'riflaydi [15]. Bu ta'rifda asosiy e'tibor kreditning muddatiga qaratilgan bu holat kredit portfelining mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki, bank tomonidan berilgan kreditlarning muddatini belgilab qo'yilishi va unga rioya qilinishi faqat kredit portfelining sifatini aniqlashda muhim omil bo'lishi mumkin.

Rossiyalik mashhur iqtisodchi olim O.I.Lavrushin "kredit portfeli tushunchasi bank ishida odatda bir yoki boshqa bankning kreditlari yig'indisi tushuniladi" deb ta'rif beradi [12]. Shu bilan birga u bankda kredit portfelini shakllantirish va uni tahlilini olib borish tijorat bankining strategiya va taktikasini aniq ishlab chiqish imkonini berib, mijozlarni kreditlash imkoniyatini oshiradi deb hisoblaydi.

Abalkin L.I, Panova G.S. va boshqa bir guruh iqtisodchilarning fikricha, tijorat banklarining kredit portfeli - bu kreditlarning sifat va tarkibi bo'yicha turkumlanishidir. Bu ta'rifda, fikrimizcha kredit portfelining mohiyatini ochib berishga ijobiy yondashilgan. Ijobiyligi shundaki, ular kreditlarning sifat tarkibiga qarab ma'lum omillarni hisobga olgan holda turkumlash zarurligini ta'kidlaydilar *[15].

Yana bir guruh xorijiy iqtisodchi olimlardan K.J.Braltron va D.Mak Notonlar, tijorat banklarining kredit portfeli - bu kreditlarni ma'lum belgilarga ko'ra turkumlanishidir deb hisoblaydilar [13]. Bu ta'rifda kredit portfeli kreditning aniq shakl va xususiyatlariga qarab tasniflanishiga asoslanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar ham bu borada qator izlanishlarni olib borishgan, xususan, Sh.Z.Abdullaevaning fikriga ko'ra, banklarning kredit portfeli - bu turli xil kredit risklariga asoslangan muayyan mezonlarga qarab turkumlangan kreditlar miqyosidagi bank talablarining yig'indisidir. [14]. Iqtisodchi olim o'z ta'rifida kreditlarning ma'lum bir mezonlar asosida turkumlanishiga, shu bilan birga kredit risklariga alohida to'xtalib o'tgan.

Yuqorida ko'rib chiqilgan ta'riflarning o'ziga xos jihatlarni tahlil qilgan holda kredit portfeliga quyidagicha ta'rif berish mumkin deb hisoblaymiz: bankning kredit portfeli- bu bankning kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarur asos sanalib, bank tomonidan berilgan jami kreditlarning yig'indisini o'zida ifodalaydi.

Shuningdek, banklar faoliyatida kredit operatsiyalari asosiy o'rinni egallagani uchun ularning kredit portfelini to'g'ri tashkil qilish banklarning samarali va barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun imkoniyat yaratib beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kredit operatsiyalarini olib borishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar banklar daromadining kamayishiga, ba'zi hollarda ularning sinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, banklarning kredit portfeli va uning sifatini nazorat qilib borish tijorat banklari samarali faoliyatining garovidir.

Yuqorida o'rganilgan holatlarga asoslanib, respublikamiz tijorat banklarida kredit portfelini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari yuzasidan izlanishlar olib borilishini doimo dolzarb deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiy iqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish masalalari bo'yicha izlanishlari, olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan. mavzuni o'rganish jarayonida umumiy iqtisodiy usullar bilan bir qatorda ma'lumotlarni tizimlash bo'yicha maxsus yondashuvlar, ya'ni taqqoslash, nazariy va amaliy materiallarni jamlash hamda tizimli tahlil kabi usullar qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish bir qator murakkab va o'zaro bog'liq jarayonlarni o'z ichiga oladi:



- Kredit siyosati va strategiyasini ishlab chiqish

Kredit siyosati bankning kreditlash sohasidagi ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi. Unda qaysi sohalarga kredit berish, mijozlarni tanlash mezonlari, foiz stavkalari, qaytarish muddatlari kabi masalalar qamrab olinadi. Samarali kredit siyosati bank faoliyatining barqarorligiga zamin yaratadi.

- Kredit risklarini baholash va boshqarish

Risklar tahlili har bir kredit berish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Banklar kredit beruvchi mijozlarning moliyaviy ahvoli, to'lov qobiliyati, biznes rejasi va ta'minot shakllarini tahlil qilishi lozim. Kreditlar diversifikatsiyasi orqali risklar kamaytiriladi.

- Kredit portfelining sifatini ta'minlash

Kredit portfelining sifatini aniqlashda to'lov muddatida qaytarilgan kreditlar ulushi, problemali kreditlar darajasi va rezervlar ta'siri inobatga olinadi. Portfeldagi problemali kreditlar sonining oshishi bank uchun jiddiy xatar tug'diradi.

- Kredit nazorati va monitoringi

Kredit berilgandan keyin ham bank mijoz faoliyatini doimiy kuzatib borishi, qaytarish holati, moliyaviy ko'rsatkichlari va ta'minotning amaldagi qiymatini baholab turishi lozim. Bunda axborot tizimlari va avtomatlashtirilgan baholash vositalari katta yordam beradi.

- Kadrlar salohiyati va malakasini oshirish

Kredit operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi bank xodimlari etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ular kredit tahlili, risklarni baholash, huquqiy normalar va bozorni tahlil qilish sohalarida yuqori malakaga ega bo'lishi lozim.

- Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish

Zamonaviy bank axborot tizimlari orqali kredit jarayonlarini avtomatlashtirish, tezkor tahlil va prognoz qilish imkonini yaratiladi. Bu esa inson omili ta'sirini kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.

- Regulyator talablar va xalqaro standartlarga muvofiqlashuv

Banklar o'z faoliyatida Markaziy bank va boshqa regulyator organlarning qonunchiligi va me'yoriy hujjatlariga rioya qilishi shart. Shuningdek, Bazel standartlari kabi xalqaro mezonlar ham bank risklari va kapital talablarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kredit portfelini boshqarishda yuzaga keladigan muammolar

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda quyidagi muammolarga duch kelishi mumkin:

- Mijozlar moliyaviy holatining noto'g'ri baholanishi;
- Ta'minot aktivlarining bozor qiymatini to'g'ri aniqlay olmaslik;
- Iqtisodiy beqarorlik va inflyatsiya oqibatida risklar oshishi;
- Bank ichki nazorat tizimining samarasizligi;
- Kreditlar faoliyat sohalari bo'yicha noto'g'ri diversifikatsiya qilinishi.

Bank aktiv operatsiyalari ichida kredit asosiy o'rinni egallaydi va bank daromadining salmoqli qismi ham aynan mazkur operatsiyalar orqali olinadi. Shu sababli bank kredit portfelining qanday shakllanishi bank faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bank kredit portfelini samarali boshqarishi uchun, eng avvalo banklarning kreditlash jarayoni to'g'ri tashkil qilinishi zarur.

Amaldagi qonunchilikda bank kredit portfeli muntazam ravishda tahlil va audit qilinishi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bunda kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosatiga va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonlariga, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilishga muvofiqligini ta'minlashga e'tibor qaratilishi lozim.

Respublikamiz bank tizimini rivojlantirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini sifati va turlarini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3270-sonli qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturining ijrosi yuzasidan O'zbekiston Banklar assotsiatsiyasi tijorat banklari bilan birgalikda amaldagi bank xizmatlariga belgilangan tariflar qayta ko'rib chiqildi [10].

Shuningdek, respublikamizda bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va innovatsion rivojlanishning tendensiyalarini inobatga olgan holda moliyaviy

ochiqlik darajasini oshirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, bank xizmatlari ommabopligining oshirilishini va bank xizmatlari iste'molchilari huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalaridan biri ekanligi belgilab qo'yilgan[9].

Mazkur qarorda tijorat banklarida kreditlarni ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda vakolatlarning haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o'rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga



to'sqinlik qilayotgan holatlarni oldini olish choralari aniq belgilab berilgan. Shu bilan birga qarorda kredit buyurtmalarini ko'rib chiqishning murakkablashgan mexanizmlari mijozlarga kreditlarni tezkor olish imkoniyatini chegaralash holatlarini oldini olish, tijorat banklari tomonidan mikroqarzlarni ajratilish imkoniyatini oshirish, chakana bank xizmatlari bozorini yanada rivojlantirish va bank-mijoz hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yishning zamonaviy yondashuvlarini amaliyotga kiritish, kreditlarni (mikroqarzlarni) ko'rib chiqish va ajratish uchun xizmat haqi hamda boshqa to'lovlarning undirilishi qarzni real qiymatini oshishiga olib keladigan vaziyatlarni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Asosiy qarz va foizlar bo'yicha 180 kundan ortiq kunga muddati o'tgan qarzдорlik mavjud bo'lsa, ushbu aktivlar «umidsiz» deb tasniflanadi.

Tijorat banki sifati «umidsiz» deb tasniflangan aktivlar uchun ularning qaytarilmagan asosiy qarz (qoldiq) summasining yuz foizi miqdorida maxsus zaxira shakllantirishi lozim.

Agar tijorat bankida bitta qarzדorغا berilgan bir necha aktivlar mavjud bo'lsa, qarzדor tomonidan tijorat bankiga qaytariladigan barcha aktivlar sifati ulardan eng past toifada tasniflangan aktivlar sifatidek tasniflanishi lozim.

Markaziy bankda tijorat banki aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralananadigan majburiy zaxira depoziti tashkil qilingan hamda ushbu majburiy zaxira depozitiga tijorat banklari o'z aktivlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi shakllantirilgan maxsus zaxiralarni summasiga teng miqdordagi mablag'larni vakillik hisobvarag'laridan o'tkazib borish talabi qo'yilgan.

Shuningdek, yangi kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, Markaziy bank tijorat banklari kredit portfelini tahlil qilgan holda, tijorat banklariga qo'shimcha ravishda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar shakllantirish yuzasidan ijro etilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar yuborishi mumkin.

Bundan tashqari, yangi kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga ko'ra, bank tomonidan ajratilayotgan barcha kreditlar bo'yicha to'lovlarni kredit shartnomasining butun amal qilish muddatiga taqsimlangan holda bo'lib-bo'lib to'lanishi belgilab qo'yildi.

Ushbu qoida banklarda muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik yuzasidan ogohlantiruvchi belgi sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda, kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, tijorat banklari o'z aktivlari sifatini tasniflash bo'yicha bir qator yangiliklar kiritildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning pirovard maqsadi ushbu portfelning risk, daromadlilik va likvidlilik ko'rsatkichlarining optimal darajasiga erishish hisoblanadi.

Fikrimizcha, tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarishda quyidagi bir qator omillarni hisobga olish zarur:

- bank aktivlari sifati ustidan doimiy, ta'sirchan monitoring olib borish, bank aktivlari bilan bog'liq muammoli holatlarni dastlabki bosqichlarda aniqlash va bartaraf etish mexanizmini mustahkamlash;
- banklarda aktivlarni keng diversifikatsiya qilish, kredit portfelini sog'lomlashtirish orqali tavakkalchiliklarni samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib ularga zarur o'zgartirishlar kiritib borish;
- bank tizimiga oid qabul qilingan qarorlar hamda kredit munosabatlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar ijrosini tashkil qilish asosida kreditlash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan xatarlarni baholash, o'rganish, ularni tahlil qilish, biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishini nazorat qilish;
- muammoli kreditlarni boshqarishning yangi usullarini shakllantirish;
- aktivlar sifatini ta'minlashni nazorat qilish, bunda kredit portfelida yaxshi kreditlar ulushi 90 foizdan kam bo'lmasligi, muddati o'tgan kreditlar miqdorini minimallashtirish, kredit portfeli tarkibining tasdiqlangan kredit siyosatiga mosligi (sohalar, hududlar va muddati bo'yicha) kabi masalalarni nazorat qilish;
- bank kredit siyosati va kreditlash tamoyillari shartlariga rioya etilishini nazorat qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, T.: O'zbekiston, 1996-yil 25-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi farmoni. 2017-yil 7-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF№5296 Farmoni. 2018-yil 9 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3270-sonli qarori.



5. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". T.: O'zbekiston. 2017-yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017-y. 22.12.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi № 3620 qarori. 2018-yil 23-mart.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturi 2017-yil 12-sentyabr.
9. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi 2696-sonli nizom. 2015-yil 14-iyul.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
